

## ISLOMDA SPORT TURLARI VA JISMONIY MASHG‘ULOTLARGA MUNOSABAT

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi  
“Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini  
o‘rganish ICESCO” kafedrasini katta o‘qituvchisi, PhD  
Sherzodjon Umaraliyev

Jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanish, o‘zaro halol raqobat bilan musobaqalashish kabi ishlarga Payg‘ambarimiz Muhammad sallolohu alayhi vasallam tomonidan rag‘batlantirilgan. Xususan, hadisi shariflarda kamon otish, ot chopish, kurash, suzish va jang qilishga o‘xshash sport turlari bilan shug‘ullanishga chaqirilgan. Imom Bayhaqiy “Shuabu-l-imon” asarida quyidagi hadisni rivoyat qiladi:

عن ابن عمر رضي الله عنهما، أنه قال: قال النبي صلى الله عليه وآله وسلم: «عَلِّمُوا أَبْنَاءَكُمْ السِّبَاحَةَ وَالرَّمْيَ»  
“Ibn Umar raziyallohu anhumodan rivoyat qilinadi: Nabiy sallolohu alayhi vasallam aytdilar: **“Bolalaringizga suzishni va kamon otishni o‘rgating”**<sup>1</sup>.

Abu Abdulloh Ibn Mojaning “as-Sunan” asarida ham mo‘min kishi jismonan baquvvat bo‘lishiga chaqirilgan:

عن أبي هريرة رضي الله عنه قال: قال رسول الله صلى الله عليه وآله وسلم: «الْمُؤْمِنُ الْقَوِيُّ خَيْرٌ وَأَحَبُّ إِلَى اللَّهِ مِنَ الْمُؤْمِنِ الضَّعِيفِ»

“Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: Rasululloh sollallohu alayhi va sallam aytdilar: **“Kuchli mo‘min Allohga zaif mo‘mindan ko‘ra afzal va sevimplidir”**<sup>2</sup>.

Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi va sallam o‘zlari ham sport bilan shug‘ullanganlar. Abu Dovudning “as-Sunan”ida u zotning ummul-mo‘minin Oisha raziyallohu anhoga qarshi yuguriish bo‘yicha musobaqalashganlari to‘g‘risidagi hadis rivoyat qilingan. Ba’zida Oisha onamiz yutganlar, ba’zida esa Rasululloh yutganlar. Rasululloh sallolohu alayhi vasallam yutganlarida:

«هَذِهِ بِتَيْكَ»

**“Bu o‘shanga javoban”**, deb aytganlar<sup>3</sup>.

Imom Buxoriyning “as-Sahih”ida Ibn Umar roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisda otda yugurish musobaqasiga chaqirilgan:

<sup>1</sup> Abu Bakr Bayhaqiy. Shuabu-l-imon. –Bayrut: Doru-l-kutubi-l-ilmiya, 2000. –J.VI. –B. 401.

<sup>2</sup> Abul Hasan Sindiy. Sunanu Ibn Moja bi sharhi-s-Sindiy. –Bayrut: Doru-l-ma’rifa, 2011. –J.IV. –B. 454.

<sup>3</sup> Abu Dovud Sulaymon ibn Ash’as Sijistoniy. As-Sunan. –Bayrut: Dor Ibn Hazm, 1997. –J. III. –B. 47.

“Rasululloh sollallohu alayhi va sallam Hafyo vodiysidan Saniyatu-l-vado dovonigacha mashq qilingan otlar o’rtasida, Saniyatu-l-vadodan Banu Zurayq masjidigacha mashq qilinmagan otlar o’rtasida poyga o’tkazganlar. Ibn Umar ham ushbu poygada ishtirok etgan”<sup>4</sup>.

Islom manbalarida ham ulamolar jismoniy tarbiya va sport bilan shug’ullanishga targ’ib qiluvchi ko’plab fikrlarni ilgari surganlar. Chunki sport inson salomatligi va aqliy salohiyatiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Hofiz Ibn Hajar Asqaloniyy “Fathu-l-boriyy Sharhu Sahihi-l-Buxoriyy” asarida shunday deydi:

“Hadisda musobaqa qilish shariatga muvofiqligi bayon etilgan. Bu o’z-o’zidan behuda emas, balki zarurat bo’lgan paytda jangga tayyorgarlik ko’rinishida foydali mashq hisoblanadi. U mustahab yoki muboh bo’lishi sababga bog’liq”<sup>5</sup>. Demak, har qanday sport turi agar u halol raqobatni kuchaytirs, kuch-quvvatni oshirs, islom dini ko’rsatmalariga muvofiq bo’ladi. Ushbu xulosa zamonaviy sport federatsiyalari tasdiqlagan sport turlariga ham mos keladi. Bunday sportlar bekorchi o’yinlar emas, balki shariatda ma’qul bo’lgan faoliyat turiga aylanadi. Imom Termiziy va Ibn Moja sahoba Uqba ibn Omirdan qilgan rivoyatida Rasululloh sollallohu alayhi va sallam aytadilar:

«ارْمُوا وَارْكَبُوا، وَأَنْ تَرْمُوا أَحَبُّ إِلَيَّ مِنْ أَنْ تَرْكَبُوا، وَكُلُّ مَا يَلْهُو بِهِ الْمَرْءُ الْمُسْلِمُ بَاطِلٌ، إِلَّا رَمِيَهُ بِقَوْسِهِ، وَتَأْدِيبَهُ فَرَسَهُ، وَمَلَاعِبَتَهُ امْرَأَتَهُ، فَإِنَّهُنَّ مِنَ الْحَقِّ»

“Kamondan oting, otga mining. Menga kamondan otishingiz otga minishingizdan ko’ra mahbubroqdir. Musulmon odam mashg’ul bo’ladigan har qanday bekorchi o’yin haromdir, faqat kamon otish, otini o’rgatishi va ahli ayoli bilan o’yin o’ynashi bundan mustasnodir, bular haqdandir”.

Mulla Ali Qoriyy “Mirqotu-l-mafotih” asarida yuqoridagi hadis haqida shunday deb aytadi:

“Ushbu ma’noga har qanday foydali ilm va amal, agar u muboh narsalar qatorida bo’lsa, mos keladi. Masalan, bunga yugurish yoki ot chopish, jismoniy kuch va aqliy faollikni oshirish maqsadidagi musobaqalar misol bo’ladi”<sup>6</sup>.

Musulmon kishi sport va jismoniy tarbiya mashg’ulotlari bilan shug’ullanishi haqida hanafiy mazhabi olimlari ham o’z asarlarida to’xtab o’tganlar. Jumladan, Alouddin Kosoniy “Badoiu-s-sanoi” asarida: “Agar o’yin ezgu maqsadlarni ko’zlagan bo’lsa, u harom bo’lmaydi”, deb aytgan<sup>7</sup>.

<sup>4</sup> Imom Buxoriy. As-Sahih. –Damashq: Dor Ibn Kasir, 2002. –J.I. –B. 113.

<sup>5</sup> Hofiz Ibn Hajar Asqaloniyy. Fathu-l-boriyy. –Bayrut: Doru-l-ma’rifa, 2005. –J.VI. –B. 72.

<sup>6</sup> Mulla Ali Qori Haraviy. Mirqotu-l-mafotih Sharhu Mishkoti-l-masobih. –Bayrut: Doru-l-fikar, 2010. –B. 252.

<sup>7</sup> Alouddin Kosoniy. Badoiu-s-sanoi fi tarftibi-sh-sharoi. –Bayrut: Doru-l-kutubi-l-ilmiya, 2003. –J.VI. –B. 206.

Molikiylardan Imom Nafaroviy ham “al-Favokihu-d-davoniy” asarida sport musobaqalarini uyushtirish mumkinligiga to‘xtalgan: “Agar musobaqa musobaqalashuvchilar tomonidan qo‘yilgan mukofotsiz tashkil etilsa, boshqa manbalarda kelganidek faqat otlar bilan emas, balki eshak, qush, safar va tosh uloqtirish kabi maqsadli harakatlarda ham joiz bo‘ladi”<sup>8</sup>.

Shofeiylardan Tojiddin Subkiy “Muidu-n-niam va mubidu-n-niqam” (43-bet, Muassasat al-Kutub as-Saqofiyya) asarida futbol, volleybol, basketbol kabi to‘p bilan muomala qiluvchi sport turlari bilan shug‘ullanish mumkinligi haqida to‘xtalgan: “Hozirgi zamon amirlari maydonlarda to‘p o‘ynashni odat qilganlar. Bu haloldir. Yana ularning otlarni ma’lum masofaga choptirib borib, u yerdan qaytishni ko‘zlashlari shariat maqsadlariga muvofiq”<sup>9</sup>.

Xulosa qilib aytganda, islom manbalarida kishilarning jismonan sog‘lom bo‘lishiga undovchi ko‘plab ma’lumotlar uchraydi. Hadisi shariflar, sahobalar so‘zlarida kelgan chaqiriqlar islom dinining sport va jismoniy tarbiyaga yuqori darajada ahamiyat qaratganini bildiradi. Yuqorida keltirilgan ahli sunna va-l-jamoa olimlari asarlarida har bir davrda yangi yuzaga kelgan sport turlariga oid bildirgan munosabatlari halollik asosida tashkillashtirilgan har qanday sport turining mumkinligiga hamda bu ishlar jamiyat va shaxs kamoloti uchun manfaatli bo‘lishiga asoslangan.

---

<sup>8</sup> Ahmad ibn G‘unaym Nafaroviy. Al-Favokihu-d-davoniy. –Qohira: Doru-l-fikr, 2005. –J.II. –B. 350.

<sup>9</sup> Tojiddin Subkiy. Muidu-n-niam va mubidu-n-niqam. –Qohira: Muassasatu-l-kutubi-s-saqafiya, 2017. –B. 43.